



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Farangiza Kurbanova<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand Davlat universiteti, e-mail: farangizakurbanova@gmail.com.

## INTERFERENSIYANI VUJUDGA KELTIRUVCHI INTRALINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK FAKTORLAR

**Annotatsiya.** Maqolada interferensiyanı vujudga keltiruvchi faktorlar tahlil qilinadi. Bilingvlar nutqida ishlataladigan so‘zlarning ifoda va mazmun plani ko‘rib chiqiladi. Interferensiyaning semantik va stilistik aspektlari haqida ham fikrlar yuritiladi.

## ИНТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБРАЗОВАНИЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ

**Аннотация.** В данной статье изучаются сущность и типы явлений интерференции, причины их возникновения, а также анализируется связь интерференции и изучения иностранных языков.

## INTRALINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC FACTORS OF INTERFERENCE

**Annotation.** In this article, studied the nature and types of phenomenon of interference, the causes of their occurrence, and analysis of connection the connection between interference and the study of foreign languages.



**Kalit so‘zlar:** Tillararo interferensiya, ikki tillilik, ichki interferensiya, tashqi interferensiya, fonetik, interferensiya va chet tillarni o‘rganish.

**Ключевые слова:** Межязыковая интерференция, двуязычие, внутренняя интерференция, внешняя интерференция, интерференции и изучение иностранных языков.

**Key words:** Interlingua interference, bilingualism, internal interference, external interference, interference and study of foreign languages.

**Kirish.** Tildagi prospektiv maqsad kontakt jarayonini qamrab olgan. Vizual va audial proporsiya til va nutq uchun xizmat qiladi. Tilda qo‘llaniladigan birliklarni motivatsiyalashda paradigmalardan foydalaniladi. Bu esa, o‘z navbatida insonga nutq jarayoniga mnemonik so‘zlarni taqdim etadi. Shu o‘rinda L.Vittengenshtyenning (Ludwig Wittgenstein) “Mening ona tilim chegarasi bu mening dunyoyim chegarasini biladiradi”<sup>1</sup> fikrlarini keltirish mumkin. Til vaqt va vaziyatga konseptual tarzda yondashadi. Nutqda so‘zlar konstruksiyasi davrdan davrga o‘tganda bir muncha o‘zgarib boradi. Til jamoa uchun xizmat qiladi. Bashariyat yashasagina til tadrijiy mukammallasha oladi. Tilni diaxron, sinxron va panxaron o‘rganish etimonlarning qo‘llanish ko‘lamini belgilab berishida keng yo‘l ochib beradi. Kishilarning eng muhim aloqa vostasi bo‘lgan tilni har tomonlama o‘rganib chiqsakkina, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zaro dilemmani bartaraf etgan bo‘lar edik.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sharqda bu masala qadimdan o‘rganilgan bo‘lib, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy Farobi, xususan, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning ijodlarida bilingvism masalalari haqida fikr-mulohazalar mavjudligini kuzatish mumkin. Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yozilgan, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy va o‘zga tillarni o‘rganish uchun grammatik qo‘llanma, etnografik, tarixiy,

<sup>1</sup> Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. М., 1957. С. 8



geografik, folklor materiali hamdir. U turkiy tillarning fonetik va grammatik xususiyatlarini, turk, o‘g‘uz va qipchoq shevalari materiallari asosida qiyoslaydi.<sup>2</sup>

Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimat-ul adab” asari o‘sha davrda arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlar, iboralarini qamrab olib, ularning ma’nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi. Unda fors, chig‘atoj, o‘zbek, chig‘atoj (o‘zbek), mo‘g‘ul, turk tillariga doir ma’lumotlar ham berilgan. Uning “Muqaddim ul-adab” asarida, fors, o‘zbek va mo‘g‘ul xos leksemalar qiyoslangan.<sup>3</sup>

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” sarvlahali maqolasida “...kelar hozirlanayluk o‘tgan zamon uchun emas”, degan jumlalarini o‘qiyimiz: - “Biz turkistoniy larga turkiy arabi, forsiy, va rusiy bilmoq lozimdu, turkiy ya’ni o‘zbekni sababi shulki, – deydi Behbudi, – Turkiston ahlining aksari o‘zbeki so‘zlashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabo tilidur. Barcha madrasalarga she’riy va diniy kitoblar arabi... Bu qoida, ya’ni dars kitobi arabi, muallim - turkiy, tahrir-u tarjimoni forsiyligi hiyla ajibdur. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydu”<sup>4</sup>

Ko‘rib turibmizki, interferensiya hodisasini bilish va o‘rganish tarixdan boshlangan. Demak, yurtimiz hududida ikki tillilik o‘zning tarixiylik mezoniga ega. Samarqand shahri aholisi nutqida o‘zbek va tojik tilining interferensiya hodisasi lingvomadaniy shakllanib bo‘ldi. Tahlilimizni o‘zbek tilshunosligida bilingvizim bilan shug‘ullangan tilshunoslar bilan davom ettiramiz.

O‘zbek va tojik bilinvizimi bo‘yicha A.K.Borovkov, K.Yusupov, H.G‘ulomov, D.Ishondadayev, M.Mirzayev, R.Rahmatova, B.Jabborov, R.Hidirov, M.Zokirov, S.Zokirova singari tilshunoslar shug‘ullanishgan.<sup>5</sup>

<sup>2</sup>Дадабоев Х. «Девону луготит турк»нинг тил хусусиятлари. – Тошкент, 2017. –Б. 6-40

<sup>3</sup> Jo‘rayev Sh. Bilingvizm sharoitida tojik va o‘zbek tillarining leksik sathdag‘i o‘zaro aloqalari. –Samarqand, 2018. B.11


<sup>4</sup>Беҳбудий М. Танланган асарлар. –Тошкент: Маърифат, 1999. – Б. 122

<sup>5</sup>Боровков А.К. Таджикско – узбекское двуязычие. –Москва, 1952; Гулямов Х. Узбекского таджикские языковые связи. –Ташкент: Фан, 1983; Юсупов К. Ўзбек ва тоҷик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974; Ишондадаев Д. Некоторые особенности словообразования в таджикских и узбекских говорах Наманганих группы районов (К проблема таджикского в узбекского языкового взаимо отношение). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро гурух шевалари. –

**Tadqiqiot metodologiyasi.** Adresat yoki adresant nutqida interferensiya hodisaning yuzaga kelishi o‘rganilayotgan til uchun anomal aksentuatsiyani keltirib chiqarish ehtimoli bor. Ikki tillilikni yuzaga chiqaradigan faktorlarga lingvistik tavsiflash va qiyosiy tahlil usullarida yondashsak.

**Tahlil va natijalar.** Tilni tilshunoslik fani o‘rganadi. Uning uch tarmog‘i mavjud:

1. Ekstralinguistica (ekstra – tashqi, linguistica – tilga xos) tildan tashqarida, ammo bevosita til bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘rganadi. Ekstralinguistica quyidagi tarmoqlarga ajraladi:



“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “Sotsiolinguistica (lot. *soctios – jamiyat* va *lingvistika*) – tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya, etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiat, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizimi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni o‘ragnuvchu ijtimoiy-nazariy soha”<sup>6</sup> deb ta’rif beriladi.

Тошкент: Фан, 1969; Ражабова Р. Сопоставительный анализ лексических единиц таджикского и узбекского языков в условиях взаимодействия. Дисс... канд. филол. наук. –Душанбе, 2007; Джаборов Б. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках. Дисс... канд. филол. наук. –Хўжанд, 2009; Хидиров Р. Лексические изменения таджикского и узбекского языков конца XX - начала XXI веков. Дисс... канд. филол. наук. –Хўжанд, 2009; Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмida намоён бўлиши. Филол. фан. номз.... дисс. автореф. –Тошкент, 2007; Зокирова С. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни. Филология фанлари бўйча фалсафа доктори (PhD)дисс... автореф.–Фарғона, 2018

<sup>6</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. –Toshkent, 2004. 26-bet.



Metalingvistika – bunda til va tafakkur, tilning mazmun tomoni, nutq faoliyati, til birliklarining matn va sharoit bilan aloqasi o‘rganiladi.

2. Intralingvistika (intra – ichki, lingvistika – tilga xos) tilning ichki tizimini, uning birliklari kategoriyalari, tilning fonologik, leksikologik va grammatik qurilishini o‘rganadi.

3. Komparativistika tillarni qiyosiy tarzda o‘rganadi.

Tillar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri ularning bir-birini boyitish shaklida yuz berishi bilan birga tillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning sof mental-lingvistik tarafdan xarakterlanadigan tomonlari ham ko‘zga tashlanadi. Bulardan biri interferensiya hodisasidir. Interferensiya ikki va undan ortiq tilni yaxshi o‘zlashtirgan bilingvlar hamda til o‘rganayotganlarning og‘zaki va yozma nutqida til me’yorlaridan og‘ish yoki ma’lum bir tilga xos fonetik, leksik, grammatik va frazeologik xususiyatlarni boshqa bir tilning materialiga avtomatik ko‘chirgan holda so‘zlash holatlaridir. Interferensiya hodisasining yuzaga chiqaruvchi faktorlardan biri bu tilshunoslikning ekstralolingvistik tarmog‘idir.

Til – ijtimoy hodisa. U jamiyat bilan birga yashaydi va rivojlanib boradi. Globallushuv jarayonida ayniqla, bir til emas balki bir necha tilga bo‘lgan ehtiyoj oshdi. Interferensiyaning yuzaga chiqishida esa, sotsiolingvistikaning o‘rni muhim hisoblanadi. Tilni jamiyatdan alohida o‘rganib bo‘lmaydi. Chunki u jamoaning mahsuli. XXI asr til taraqqiyotida bir muncha evrilishlarga sabab bo‘lmoqda. Tilimizga shiddat bilan kirib kelayotgan chet so‘zlar insoniyat ongida saqlanib qolmoqda. Samarqand ko‘p millatli shahar. Bu yerda sostisolongvistik muhit spontan tarzda o‘zgarib turadi. Sotsiolongvistika tilning ijtimoy tabiatini yoritishda *tarixiylik, hayotiylik, me’yoriylik, hududiylik* kabi qator mezonlarga amal qiladi. Buni biz Samarqand shahridagi uch til misolida ko‘rib chiqamiz.

Tahlilimizni interferensiyani yuzaga chiqaruvchi faktor, ekstralolingvistik tarmqolaridan biri sotsiolingvistikaning mezoni bo‘lgan tarixiyliklikdan boshlaymiz.



O‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi aloqalar qadimiy bo‘lib, jumladan uning ilk ildizlari miloddan avval VII-VI asrlarda Ahamoniylar va Qang‘ davlatida esa miloddan avval III-II asrlarda boshlangan.

Shuningdek, tojikistonlik tarixchi olim B.G‘.G‘afurov ta’kidlashicha, bu tarix miloddan avvalgi davrlar bilan bog‘langan. Ayniqsa, milodiy VI asrlardan boshlab, bu ikki xalq bilingvizimi holati yanada kuchaygan. Ana shunday tillarning qadimiy bilingvizm holatidagi xususiyatlarini o‘rganish ham ancha oldin boshlangan.<sup>7</sup>

Interferensianing yuzaga kelishida hayotiylik mezonini ham ko‘rib o‘tsak. Til kommunikativ aloqa vositasi hisoblanadi. U o‘zaro diskursda verbal va noverbal tarzda informatsiyani uzatadi. Til hayotiyligini yo‘qotsa, o‘lik tilga aylanib qoladi. Ba’zan o‘lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak.<sup>8</sup> Shahrimiz hududida faol qo‘llanuvchi tillardan rus, o‘zbek va tojik tillarining interferensiya hodisasiga uchrashi va bilingv nutqidagi kamchiliklarga bu mezon ham to‘g‘ri keladi. Chunki nafaqat bugun balki o‘tgan yillar misolida ham ko‘rish mumkinki, so‘nggi yillarda aholi nutqida bu tillar faol qo‘llanilmoqda. Kommunikatsiya faol bo‘lsa-da, tillar aralashushi ham undan ham jadalroq kechmoqda. Buni biz bilingvlarning nutqidan ko‘rshimiz mumkin.

*Ko‘ramiz:* N.ismli bilingv – millati tojik, Samarqand shahrida istiqomat qiladi. Kommunikatsiyani uyda tojik tilida, ko‘chada va mакtabda rus va tojik tilida amalga oshiriladi. Keling, uni endi o‘rganayotgan tili, o‘zbek tilida yozgan matni bilan tanishamiz:

*Yomg‘ir*

*Bahor fasliga tez-tez yomgi‘r yog‘adi. Bugyn ham yomg‘i o‘xdi. Osmonni bulyt koplab, havo ozqrди. Keyin esan berdan sharroz yomg‘r kuydi.*

Statistik tahlil qiladigan bo‘lsak, matnda tojik tili ta’sirida qilingan xatolar: 1-fasliga (aslida faslida), 2- yomg‘i (aslida yomg‘ir), 3- o‘xdi (aslida yog‘di), 4-

<sup>7</sup>Қаранг: Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007, –Б. 34, 64, 164-183, 228, 262

<sup>8</sup>IsroilovaB. “Tohir Malik asarlari tilining sotsiolingvistik tadqiqi”. - Andijon, 2016-B-8.



*berdan (aslida birdan) 5- ozqrди (aslida o 'zgardi) 6- esan (aslida esa)* 6 tani tashkil qilmoqda. Rus tili ta'sirida qilingan xatolar: 1- *Bugyn (aslida bugun)*, 2- *bulyt (aslida bulut)*, 3- *koplاب (aslida ko 'plab)*, 4- *kuydi (aslida quydi)* 4 tani tashkil qilmoqda.

Bu matnda ham tojik tilining ham rus tilining interferensiyasini ko'rish mumkin. Demak, bilingv kun davomida *tojik tilida 60 foiz*, *rus tilida 30 foiz* va endi *o 'raganayotgan tili o 'zbek tilida 10 foiz* muloqotda bo'ladi. Lekin o'zbek tilida gapirganda va yozganda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadi. Bu esa, tildagi soflikka zarar berishi mumkin. U faqat o'zbek tilida emas, balki rus va tojik tillaridagi nutqi ham kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Buning sababi esa, bilingvning tillar strukturasidagi nuqsonlaridadir.

Yana bir misol, bilingvning o'zbek tilida daftar ustiga ism familiyasini yozishini ko'rsak:

ТЕТРАДЬ

для O 'zbek tili

учени ka \_\_\_\_\_ класса \_\_\_\_\_

Soliyeva Boburjona

Bilamiz, rus tilida qarashlilik ma'nosini ifodalash uchun ayollar ismiga “ы” *fonemasi*, familiyasiga esa “ой” *affaksi* qo'yiladi. Misol: *Tempadъ no русскому языку ученицы Курбановой Фарангизы*

Erkaklar ism va familiyasiga esa, “а” *unlisi* qo'yiladi. Misol: *Tempadъ no русскому языку Солиева Бобуржона.*

O'zbek tilida bu holat ayollarda ham, erkaklarda ham qaratqich kelishigi bilan izohlanadi. Misol: *Qurbanova Farangizaning O'zbek tili daftari; Soliyev Boburjonning O'zbek tili daftari.*

Bu yerda bilingvning tafakkurida rus tili strukturasi. U shunchaki lotin yozuvida yozyapti, lekin fikrlashi rus tilida amalga oshgan. Bu ham interferensiyaning yuzaga chiqaruvchi faktorlari ham intralingvistikaga, ham ekstralingvistikaga misol bo'la oladi.

Xullas, yuqoridagi aspektlardan ko'rdikki, interferensiyanı yuzaga chiqishida intralingvistik va ekstralingvistik faktorlar birdek xizmat qiladi. Sotsial aloqada



qo'llaniladigan til bilingv nutqida interferensiyaga uchrasa, fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan gapga ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ikki tillilikda inson eng birinchi ikkala tilning garammatikasidan yaxshiroq xabardor bo'lishi muhim. O'shandagina u tafakkurida ham, nutqida ham interferensiyaga uchramasdan suhbatlasha oladi va matn yarata oladi.

**Xulosa va takliflar.** Interferensiyani vujudga keltiruvchi intralingvistik va ekstralingvistik faktorlar tahlillarda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- til o'z o'zidan o'zgarib qolmaydi va yo'qolmaydi;
- tildagi interferensiv o'zgarishlarga nutq egasining tafakkuri va tajribasi omil bo'лади;
- adresat va adresant o'rtasidagi kontanktda ham ikki tillilikdan foydalanganda interferensiya hodisasi yuzaga kelishi mumkin;
- bilingv ikki til strukturasini ham o'rganishi lozim;
- bunda faqat yozma matnlar emas, balki ko'proq diskurs qo'l keladi; Chunki til o'rganuvchi qancha ko'p muloqotda bo'lsa, undagi yangi leksika shuncha ko'p sayqalashadi.

Agar yuqoridagi xulosalarga amal qilinsa, nutqda uchraydigan aksent va xatoliklar biroz kamayishi mumkin. Biroq olimlar interferensiya batamom yo'qolishi mumkinligini inkor etishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодуэн де Куртенэ, И.А. Фонология //И.А. Бодуэн де Куртенэ // Избранные труды по общему языкознанию. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – Т.1. – С. 253-361.
2. Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие // “Новое в лингвистике” / Под ред. В.Ю. Розенцвейга. // Вып. 6. М.: Изд. Прогресс, 1972. -С. 25-60.
3. В.В.Алимов. “Теория перевода”, Москва, 2005 . –С. 20.
4. Физическая энциклопедия. Том 3. - М-П. –Москва: Научное издательство, 1992.



5. Лингвистический энциклопедический словарь /Под ред. В.Н. Ярцевой – М.: Советская энциклопедия. 1990.
6. Кодирова К.С. Преодоление фонетической интерференции при обучении арабскому языку узбекской аудитории: Дис. ...канд. пед наук. -Т., 2008. –С. 11
7. Саломов F. Таржима назариясига кириш. -Т., 1990.
8. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. -Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 191-195-betlar.
9. Психологический Энциклопедический словарь. –Москва, 1960.
10. Ямщикова О.А. Психологические особенности и типы фонетической интерференции при обучении второму иностранному языку: автореферат дис. ... кандидата психологических наук: 19.00.07 / Ангарский гос. технол. ин-т. - Иркутск, 2000. - 18 с.
11. <https://uz.wikipedia.org/>